

TALABA YOSHLARNI MUSIQA NAZARIYASI FANIGA QIZIQTIRISH USLUBLARI.

Orzigul Ruziyeva

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti „San'atshunoslik“
kafedrasida katta o'qituvchisi*

Narmurodova Adiba

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti
musiqiy ta'lim yunalishi talabasi*

Anatasiya: Talim tarbiya ong mahsuli lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin talim tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turub ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni teran anglamay, biz ko'zlagan oliy maqsad ozod va obod jamoyatni barpo etib bo'lmaydi. Barcha ijtimoiy sohalar kabi musiqa ta'limining ham inson ongu tafakkurining rivojlanishida, shaxsning komillik darajasiga yetishida musiqa ilmining ham o'z o'rnini bor. Maqolada musiqa ta'limini yoshlarga o'rgatishdagi uslublarning ahamiyati, turi uslublari haqida gap boradi. O'ylaymizki ushbu kichik tadqiqot musiqa ilmining rivojlanishida turtki bo'ladi.

Kalit so'zlar: Musiqiy ta'lim, musiqiy terapiya, uslub, metod.

Talim tarbiya ong mahsuli lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin talim tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turub ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni teran anglamay, biz ko'zlagan oliy maqsad ozod va obod jamoyatni barpo etib bo'lmaydi. Barcha ijtimoiy sohalar kabi musiqa ta'limining ham inson ongu tafakkurining rivojlanishida, shaxsning komillik darajasiga yetishida musiqa ilmining ham o'z o'rnini bor.

Musiqiy idrokning to'laqonliligi, musiqiy ifoda vositalarini tushunish imkoniyati, intensivlik va musiqiy kechinma turlari har bir odamda har xil bo'lib, o'z xususiyati hamda sabablariga ega. Nima uchun musiqani hamma eshitadiyu, lekin hamma ham idrok eta olmaydi? Nima uchun ba'zi yevropalik tinglovchi Sharq [musiqasini](#), ba'zi Sharq tinglovchisi esa Yevropa musiqasini har doim ham to'la tushunavermaydi? *Idrok* narsalar yoki hodisalarning sezgi a'zolariga bevosita ta'siri orqali ongimizda aks etishidir. Psixologiyada idrok predmetlilik, yaxlitlik, strukturalilik, barqarorlik kabi o'ziga xos sifatlarga ajratiladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi "Musiq madaniyati" darslarida musiqani idrok etishni tashkil etish musiqa madaniyati darslarining tuzilishi va darsning tarkibiy qismlari bilan chambarchas bog'liqdir. O'rta umumiy ta'lim maktablaridagi Musiq madaniyati darslarining tuzilishi ovoz sozlash, xor bo'lib kuylash, musiqa savodi,

musiqa tinglash, musiqa mos harakatlarni bajarish kabi faoliyat turlaridan iborat bo`lib, bu faoliyat turlarining har birida musiqa idroki yetakchi vazifani bajaradi.

- Darsning ovoz sozlash qismida o`quvchilar musiqani, musiqiy tovushlarni idrok etish orqali musiqay tovushlarning aniq balandligini, cho`zimini [his qilishni](#), idrok etishni hamda sof ovoz hosil qilishni o`rganishadi.
- Darsning jamoa bo`lib kuylash qismida o`quvchilar musiqani, musiqiy mavzuni idrok etish orqali sof ovozda ifodali kuylashni o`rganishadi.
- Darsning musiqa savodini o`rganish qismida o`quvchilar musiqani, musiqiy tovushlarning tuzilishini, nazariy jihatdan idrok etish orqali musiqiy asarlarning strukturasi idrok etishni o`rganishadi.
- Darsning musiqa tinglash qismi musiqani idrok etishni o`rganishda alohida ahamiyatga ega bo`lib, bunda o`quvchilar musiqiy asarlarni tinglab tahlil qilish orqali ularning tuzilishi, registri, tembri, tempi, dinamikasi, tovushlarning past-balandligi, diapazoni hamda alohida berilgan musiqiy asarning asosiy mazmunini aynan tinglash orqali idrok etish malakalariga ega bo`lishadi.
- Darsning musiqa mos harakatlarni bajarish qismida o`quvchilar asosan musiqaning tempini, tembrini, dinamikasini, shaklini hamda xarakterini his qilishni, idrok etishni o`rganishadi.

Bu o`rinda o`qituvchi o`quvchilarning musiqani idrok etishlarini shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi usullardan har bir mashg`ulotlardauning oldindan tuzilgan rejasiga ko`ra turlicha vaziyatlarda foydalanishi mumkin. O`rta umumiy ta`lim maktablaridagi Musiqa madaniyati darslarida musiqani idrok etishni tashkil etish musiqa madaniyati o`qituvchisining yuqorida ko`rsatilgan darsning tarkibiy qismlaridagi imkoniyatlardan har bir alohida olingan mashg`ulotlarda qay darajada foydalanishuga bog`liq.

Xususan musiqa ta`limi sohasida ham davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyevning muhim 5 tashabbusda ham aytib o`tilgan Harakatlar strategiyasining birinchi yunalishi musiqa san`at va sport bo`lib bu yoshlarni ma`naviyatini yuksaltirishga ularning qalbida ona vatanga muhabbat ,istiqlol g`oyalari sodiqlik , ijodkorlik va bunyotkorlik g`oyalari sari undashida musiqa san`atining o`rni beqiyosdir.

Musiqa- bu tarbiyaning eng faol turi hisoblanadi . Bola tug`ilgandan boshlab ilk bora ona allasini tinglab orom oladi.Ona allasida vatanga muhabbat, ona yurtga sadoqat kabi buyuk insoniy his-tuyg`ular mujassam bo`ladi .

Inson qanday kasbni tanlashidan qat`iy nazar shu kasbning sir asrorlarini yahshi egallash va etuk mutahasisi bo`lishi uchun avvalo shu sohaning nazariyasini mukammal bilishi shart.

Musiqa jahonda yagona til hisoblanadi. Hurmatli prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev „Sport va musiqa halqni davlatni jahonga tanituvchi oliy kuchdir.

Musiqani tinglashdan busiqani tinglashdan boshqacha ham idrok qilish mumkin . Bu idrokni qalban his qilish kerak” degan edilar .O’z yaratgan ohang larida butun olamning munavvar aksini tasvirlay olish uchun , insonning yashirin va sirli ichki dunyosini mohirona ochib berishi uchun va yahshi mutahasis bo’lishi uchun har bir musiqachi musiqa nazariyasini yaxshi bilishi lozim .Musiqqa nazariyasini bilish , musiqani his qilish , idrok qilish va uning mazmun mohiyatini anglab olish demakdir.

Mening tanlagan mavzuyim „Talaba yoshlarni musiqa nazariyasi faniga qiziqtirish omollari.”haqida ekan birinchi navbatda shu omillar haqida fikr yuritsak. Yoshlarni musiqa nazariyasi faniga qiziqtirish va intilishni shakllantirish lozim. Bu qiziqishni uyg ‘otish va shakllantirish o’qituvchini oldiga qo’yan eng muhim vazifaridan biridir. Musiqaga qiziqishi bor talabalarni shu fanga to’g’ri yunaldirish uchun avvalo pedagog o’z ustida ishlaydigan ,talabalar psixologik holatidan kelib chiqib dars mobaynida kekakli va foydali metodlarni joriy eta oladigan inavatsion talim tizimini tug’ri qo’llay oladigan o’qituvchi bo’listalim tizimini tug’ri qo’llay oladigan o’qituvchi bo’lishi lozim. Tabiiyki maxsus musiqa maktablarini va kollejlarni bitirgan talabalar musiqa nazariyasini biladilar hamda ular tez o’zlashtiradilar.

Maktab ostonasidan oliygohga kirib kelgan talaba esa butun dars mobaynida ular bilgan bilim darajasiga umuman loyiq bulmaydi.Chunki musiqa yunalishi bo’yicha boshlang’ich talimni olib kelgan kursdoshlari o’qituvchi tomonidan aytilgan darsni faqat qayta tiklash manosida qabul qiladilar.Agarda bitta kursda uch turt shu hildagi boshlang’ich musiqa savodidan orqaga qolaveradi. Hech qanday musiqa malumotiga ega talabalarga musiqa nazariyasining osonroq qilib osonroq qilib etkazishga ba’zi omillardan foydalanishimiz mumkin.

Masalan:

- Birinchi navbatda yaxshi musiqa asboblaridan dars mobaynida keng foydalanish;
- Ikkinchidan dars davomida mavzuga doir har xil turdagi ko’rgazmali qurollardan foydalanish ;
- Uchinchidan imkon qadar talabalar erkin fikrini bilgan holda ular bilan savol-javob tarzda darsni olib borish ;
- Turtinchidan har bir darsni talabi o’zi qiziqqan musiqa asbobida yoki pianinoda amliy kursata olishi;
- Beshinchidan nazariyasining eng muhim va kerakli qoidalarini iloji boricha rangli ruchkalarda yazilishi nazorati;
- Oltinchidan imkon qadar eliktron darslik va internetdan foydalanish yullarini tushuntirish;
- Ettinchidan berilgan topshiriqlarni nota daftarrida har kunida bajarib kelishini nazorat qilish;

Bu yuqoridagi omollarda rangli ruchkalarni aytib o'tkanimiz sababi psixologlarning o'tkazgan tadqiqotlariga qaraganda ko'rib qabul qilish eng faol qabul doirasiga kirar ekan va har bir yangi malumot inson yangi kurgan rangiga yozilsa uning ongiga tez qolar ekan. Musiqa nazariyasi musiqaning o'zagi hisoblanadi va musiqa nazariyasini yaxshi bilmagan talaba musiqaga oid boshqa fanlarni jumladan derijorlik, vokal maxsus va qo'shimcha cholg'u asboblari va xor fanlaridan yaxshi o'zlashtira olmaydi.

Musiqa nazariyasiga talabalarni qiziqtirish omillari muhim va mukammal bo'lishi kerak. Bu omillar ichida eng muhimi kurgazmali materiallar ,elektron darsliklar va albatta pianino asbobidir . Ko'rgazmali qurollar eng avvalo talabalarning o'zlari tomonidan tayyorlanishi kerak, kurgazmali qurollar o'tiladigan mavzular asosida tayyorlanishi kerak. Bazi talabalar o'z fikrlarini ochiq bayon eta olmaydi. Hoziga buyuk islohatlar amalga oshayotgan sharoitda mustaqil fikrlovchi talabalarning bo'lishi davr taqazosi bo'lib ,shahsiy dunyoqarqshiga ega bo'lgan talabalargina jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi ishlarni qilishga qodir bo'ladi. Ana shunday samara beruvchi metodlardan biri „breynsterming’’ deb atalib uning lug'aviy manosi „miyani zarb etish’’dir. Uni o'tkazish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Ba'zi intellektual masalalarni yechishda bir usul bilan cheklanib bo'lmaydi va shu maqsadda ijodiy fikrlovchilar guruhi tashkil etiladi va bu jarayondan guruhiy samara bo'lishi kutiladi. Guruh ishi tez va optimal qarorlar qabul qilishga qaratilgan bo'ladi bunda alohida ayrim individual qarorlarga tasirlashishga yo'l qo'ymaydi.

2. Guruhda shunday talabalar kiritiladiki ular bir biridan fikrlari uslublarning noyobligi bilan farq qiladi.

3. Guruhda shunday ijodiylik guruhi bo'lishi kerakki har kim hohlagan fikrini bemalol bayan eta oladi. U yoki bu fikrni tanqid qilishi lozim ammo fikr egasi tanqid qilinmaydi.

Bu jarayaon oliy o'quv yurtlarida dars jarayonlarida qo'llanishi mumkin . Faqat yuqoridagi tamoyillari inobarga olinishi va guruhda o'zraro hamjihatlik muhiti bo'lishi kirak. Musiqa nazariyasida intervallarning aylanishlari har hil tovushlardan tuzilishlari , kvarta va kvinta davralarini tuzish va boshqa savollar og'zaki so'ralganda talabalarning tezkor javoblariva faolligi orqali ularning fanga bo'lgan qiziqishlari yanada oshadi.